

JINOYAT PROTSESSIDA ISBOT QILISH VA UNDA MUTAXASSIS ISHTIROKIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Abduvahobov Sherzodbek Abduvahobovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: sherzodbekabduvahobov01@gmail.com

Orcid: 0009-0008-4580-3540

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12624197>

Jinoyat protsessida isbot qilish dalillarni to'plash, tekshirish va baholashni o'z ichiga qamrab oladi. Isbot qilish jarayonining mazmuni va mohiyati yuzasidan hozirgacha turlicha fikrlar va mulohazalar bildirib kelinmoqda [1, B.25].

Xususan, huquqshunos G.Z.To'laganova, isbot qilish haqida, sub'ektlarning jinoyat-protsessual qonunga asoslangan holda muayyan jinoyat ishiga tegishli bo'lgan har qanday ma'lumotlarni protsessual tartibda to'plash, mustahkamlash, tekshirish va baho berish, shuningdek davlat nomidan bu ma'lumotlarning mavjudligini tasdiqlash faoliyati tushuniladi deya fikr bildirgan[2, B.141]. Bu borada G.Z.To'laganova tomonidan bildirilgan fikrga qo'shilish mumkin. Chunki, jinoyatni fosh etish va isbot qilish jarayoni jinoyat-protsessual qonunga asoslangan bo'lishi lozim.

Huquqshunos O.M.Madaliyev fikricha, isbotlash – protsessual tartibda qonun bilan nazarda tutilgan, surishtiruv organlari, tergov, prokuror va sud amalga oshiradigan isbotlashning boshqa sub'ektlari ishtirokida jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash va jinoyat sud ish yurituvining barcha vazifalarini hal qilish maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bo'yicha faoliyatdir deb ta'kidlab o'tgan[3,B.13]. O.M.Madaliyevning fikriga qo'shilgan holda, isbot qilish jarayoni faqat uni amalga oshiruvchi shaxslar doirasi bilan cheklanib qolmasdan, ushbu jarayonlar bevosita jalb qilinuvchi boshqa ishtirokchilar tomonidan ham amalga oshirilishini e'tirof etish o'rinli.

B.A.Azizxodjaev, isbot qilish tergov tushmollarini ilgari surish va ularni dinamik rivojlantirish, har bir tushmolga oid dalillarni to'plash, to'plangan dalillarni o'rganish (tekshirish), baholash va ish bo'yicha asoslantirilgan protsessual qarorlar qabul qilishdan iborat deya fikr bildirgan [4, B.16]. Bu borada B.A.Azizxodjaev tomonidan bildirilgan fikrlar biroz munozarali. Chunki, tergov tushmoliga oid dallillar kelgusida dalil sifatida e'tirof etilmasligi va isbot qilish jarayonida ahamiyat kasb etmasligi mumkin. Ya'ni, isbot qilish jarayoni xaqiqatga mos kelishi, tekshirilgan va qonunda ko'rsatilgan tartibda baholangan bo'lishi lozim.

D.M.Mirazovning qayd etishicha, isbotlash jarayonida ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirish, ishda qatnashayotgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishni ta'minlash, jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni tashkillashtirish lozim [5, B.73]. Bu borada bildirilgan fikrlarga qo'shilish mumkin. Chunki, isbot qilish jarayoni uni amalga oshiruvchi yoki unga jalb qilingan shaxslar tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarini amalga oshirish jarayonida har tomonlama, to'la va xolisona tekshirish hamda sinchkovlik bilan isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlarga e'tibor qaratishlari lozim bo'ladi.

B.T.Bezlepkinning fikricha, isbot qilish faqat tafakkur faoliyatigagina kiritilmasligi kerak chunki, bu ko'proq huquqni qo'llash bo'lib, ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlashga qaratiladi va jinoyat ishi bo'yicha yakuniy qarorni asoslash bilan tugallanadi [6, B.75-95].

L.A.Tatarov fikricha, isbot qilish bu – ish bo'yicha jinoyat protsessual qonunda belgilangan tartibda to'plangan dalillar yordamida ayblanuvchining (sudlanuvchining) jinoyatni sodir etishda aybdorligini (aybdor emasligini) mantiqan asoslab berish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tushunish lozim [7, B.9].

B.T.Bezlepkin va L.A.Tatarovlar tomonidan bildirilgan fikrlarga qo'shilgan holda, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning xatti-harakatlari qonunda nazarda tutilgan holatlarda isbot qilish lozim. Albatta isbot qilish jarayoni qonunni qo'llash orqali amalga oshirilib, qonundan chetga chiqish, isbotlash chegaralaridan chetga chiqish deb baholanishi mumkin.

B.A.Rajabov, dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan birgalikda, isbot qilishning bosqichlariga dalillarni aniqlash va foydalanishni ham kiritgan [8, B.23].

Bu borada professor B.A.Rajabovning fikrlariga qo'shilish mumkin. Chunki, isbotlash jarayonida dalillar dastlab aniqlanadi, kelgusida foydalanishi mumkin. Isbotlash jarayonida olingan dalillarni kelgusida foydalanmasdan isbotlashning maqsadiga erishib bo'lmaydi.

*Bizning fikrimizcha **isbot qilish bu*** – jinoyat-protsessual qonunida ko'rsatilgan vazifalarini amalga oshirishda, dalillarni aniqlash, to'plash, tekshirish, baholash hamda ulardan foydalanish maqsadida isbot qilishni amalga oshiruvchi, ishtirok etuvchi yoki jalb qilinuvchi sub'ektlar faoliyati tizimidir.

Isbot qilish dalillar vositasida amalga oshiriladi [9, B.10], bunda dalillarni aniqlash dastlabki tekshiruv ko'rinishida yuz beradi va uni o'tkazishda ko'pincha maxsus bilimlardan foydalanish zaruriyati yuzaga keladi. Mutaxassisning isbot qilishdagi ishtiroki maxsus bilimlardan foydalanishga misol bo'ladi hamda asosan dalillarni aniqlash, to'plash va tekshirishda namoyon bo'ladi. Dalillarni aniqlash va to'plash asosan ishni sudga qadar ish yuritishda amalga oshiriladi.

Tergov amaliyoti tahlili muayyan vaziyatlarda (hujjatlar aylanishi, texnologik jarayon va boshqalar bilan tanishishda) dastlabki tekshirishga mutaxassis jalb qilish zarurligini ko'rsatadi. Mutaxassis yordamida olingan ma'lumotlarda ko'pincha jinoyat belgilari bor yoki yo'qligini ko'rsatadigan zarur ma'lumotlar bo'ladi, bu esa dastlabki tekshirish natijalari asosida to'g'ri protsessual qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

Jinoyat protsessining sudga qadar ish yurituv bosqichida, JPK talablariga muvofiq, tergovchiga, surishtiruvchiga ashyo va hujjatlarni topish, qayd etish va olib qo'yishda, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, murdani ko'zdan kechirishda texnika vositalaridan foydalanishga yordam berish uchun mutaxassis jalb qilinishi mumkin.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish paytida mutaxassis tergovchiga texnik jihatdan va maslahat bilan yordam ko'rsatadi, bu esa tergovga qadar tekshiruvni tezroq va samaraliroq o'tkazishga, bayonnomada qayd etish uchun iz va belgilarning tavsifini aniqroq shakllantirishga, jinoyat hodisasi bilan bog'liq holda izlar paydo bo'lishining ehtimoliy mexanizmini aniqlashga ko'mak beradi. Baxtsiz hodisa yuz bergan joyni tekshirish jarayonida mutaxassis maxsus masalalarni hal qilish borasida texnik yordam ko'rsatadi. Huquqshunos Sh.X.Inomjonov qayd etishicha, moddiy birikmalarda mavjud bo'lgan tezkor axborot bevosita tezkor xodim tomonidan yoki mutaxassis yordamida olinadi [10, B.89]. Mutaxassis maslahat va tushuntirishlar beradi, shuningdek, ayrim narsalarning nomi va vazifasini aytib beradi, iz, narsa va boshqa ob'ektlarni yig'ish va olib qo'yishda texnik yordam beradi hamda bayonnomaga kiritiladi. A.X.Imomnazarov fikricha, ayrim hollarda, amaliyotda hodisa joyini ko'zdan kechirishga mutaxassislar jalb qilinmasligini yo'l qo'yiladigan xato sifatida e'tirof etadi [11,

B.20-21].

Sh.X.Inomjonov va A.X.Imomnazarov tomonidan bildirilgan fikrlarga qo'shilish mumkin. Fikrimizcha, mutaxassis ishtirok etishi lozim bo'lgan holatlarda, ularning ishtirokini ta'minlamaslik, kelgusida ishonchsiz, sifatsiz dalillar to'planishiga olib kelishi mumkin.

Bu borada tadqiqot jarayonida soha mutaxassislari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham qayd etilgan fikrlarni tasdiqlaydi.

O'tkazilgan so'rovnoma davomida "jinoyat protsessida mutaxassisning ishtiroki ishga oid hal qiluv qarorlarini qabul qilishda qanday o'rin tutadi?" degan savolga respondentlarning 90,07 foizi "asosli va qonuniy qaror qabul qilinishi ta'sir qiladi", 5,96 foizi "hech qanday o'ringa ega emas", 6,32 foizi "mutaxassis ishtiroki ishda rasmiyatchilik uchun zurrur", 93,32 foizi "ish uchun ahamiyatli, ishonchli va maqbul dalillar to'planishi bilan birga xolisona ish yurituvini ta'minlashga xizmat qiladi" deya o'z fikrlarini bildirganlar [12]. So'rovnoma natijalaridan ko'rinib turibdiki, mutaxassisning jinoyat protsessidagi ishtiroki juda muhim.

References:

1. Правовой статус и правовая регламентация участия специалиста в уголовном процессе: теоретические, процессуальные и организационные аспекты: монография / Е.А. Семенов, В.Ф. Васюков, А.Г. Волеводз; под редакцией А.Г. Волеводза. — Москва: МГИМО-Университет, 2020. — С. 25.
2. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism: Darslik/ Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU, 2017. – B. 141.
3. Мамадалиев О.М. Биринчи инстанция судларида жиноят ишлари юритишда прокурор иштироки: юридик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. – Т., 2004. – Б.13
4. Азизходжаев Б.А. Оценка доказательств в уголовном процессе. Т.: ТГЮИ, 1995. – Б. 16.
5. Миразов Д.М. Дастлабки тергов идоралари фаолияти устидан контроль ва назоратни такомиллаштиришнинг назарий, ташкилий ва процессуал жиҳатлари:Юрид.фан. докт.(DSc) илмий дар.олиш учун ёзилган диссертация – Т., 2016. – Б. 73.
6. Безлепкии Б.Т. Доказательства в советском уголовном процессе // Советский уголовный процесс: Учебник / Под ред. В.П.Божьева – М.: Юрид.лит., 1990. Б. 75-95.
7. Татаров Л.А. Методические и методологические проблемк доказывания обстоятельств преступления: Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Ростов – на – Дону., 2006. – С.9.
8. Ражабов Б.А. Ишни судга қадар юритишда исбот қилишнинг умумий шартларига риоя этилишини таъминлаш: Юрид.фан. докт.(DSc) илмий дар.олиш учун ёзилган диссертация – Т., 2019. – Б. 23.
9. Иномжонов Ш.Х. Жиноят процессида далилларни тақдим қилиш ва улардан фойдаланиш муаммолари: Монография. – Тошкент.:TDYI, 2006. – Б.10.
10. Иномжонов Ш.Х. Жиноят процессида далилларни тақдим қилиш ва улардан фойдаланиш муаммолари: Монография. – Тошкент.:TDYI, 2006. – Б.89.

11. *Имомназаров А.Х.* Кўздан кечириш тергов ҳаракатини такомиллаштиришнинг процессуал ва криминалистик жиҳатлари: Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия автореферати. – Т., 2023. – Б.20-21.
12. Tadqiqot ishi doirasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari.